

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TE RMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA MUSIQA FAKULTETI

«MAKTABGACHA TA'LIM» KAFEDRASI

Pedagogik mahorat fanidan

Ma'ruza matni

Tuzuvchi; dots. S.Jo`raqulov

Termiz-2007

A N N O T A S I Y a

Ma'ruza matnida maktab amaliyotida va bolalarни Комил инсон килиб тарбиялашда Президент асарларидан фойдаланиш оркали иш тутиш мухим долзарб масалага айланди. Комил инсон тарбиясида комиллик маънавий ва маърифат ҳамда болаларда маданиятни шакллантиришга каратилагандир. Бу асосан инсонни комиллик даражасига етказишда маънавий эҳтиёж комиллик омиллари, уз кудратига ишонч ҳамда маънавий ва маданий маърифий марказларини ташкил этилиши оркали мақсадга эришилади.

Tuzuvchilar:

dots. Jo`raqulov C.K.

Taqrizchi:

p.f.n. k.o`q. Рахматуллаев А

Ushbu ma'ruza matni kafedra yig'ilishining «__» «__» 2007 yil №__ qarori bilan tasdiqlangan:

Pedagogika va musiqa fakultet metodik kengashi yig'ilishining «__» «__» 2007 yil №__ qarori bilan tasdiqlangan:

Ma'ruza matni Termiz davlat universiteti Ilmiy kengashida ko`rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

2007 yil «__» «__» dagi sonli majlis bayoni

K i r i sh

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy ahamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo`lib kelgan.

Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohatlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan ilmiy uzluksiz ta'lim berish orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirishini nazarda tutadi»-deya ta'kidlanadi.

Bu esa o`qituvchilardan o`z kasblarini egallashlarida juda katta tayyorgarlikdan o`tishlari kerakligini talab etadi.

Hozirgi vaqtda oliy o`quv yurtlari davr talabiga javob beradigan holda mutaxassislari faqat nazariy bilimlarini chuqur o`rgatib tayyorlamoqdalar. O`quv rejalarida ham mutaxassislik fanlarini o`qitishga katta e'tibor berilmoqda. Lekin akademik litsey, kasb-hunar kollejlariga faqat chuqur bilimli, muayyan mutaxassis bilimlarini chuqur egallagan muallimlarga emas, balki ayni vaqtda insoniy fazilatlar egasi bo`lgan, ta'lim oluvchilar bilan qiynalmasdan muommalaga kirisha oladigan haqiqiy, mohir pedagog kadrlarni tayyorlab etkazib berish kerak. Bo`lajak o`qituvchi ixtisosligi bo`yicha bilimlarni egallashi davomida o`zining ma'naviy-ahloqiy darajasini kengaytiradi. O`z kasbi doirasida odob-ahloq me'yorlariga rioya qilish xususiyatini, uning mohiyatini o`zlashtiriladi, muallim odobining bola shaxsiga ta'sirini anglab, turli vaziyatlarda o`z xulqini idora qilish zaruratini tushunib etadi.

1- mavzu: Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o`qituvchi faoliyatida tutgan o`rni va ahamiyati

Reja:

1. Pedagogik mahorat kursining predmeti, maqsad va vazifalari

2. Pedagogik mahorat tushunchasi.
3. Pedagogik mahoratning tuzilishi.
4. Pedagogikning faoliyat va mahorati.

Tayanch tushunchalar: Pedagogik mahorati; Pedagogik mahorat predmeti; Pedagogik mahorat kursining vazifalari; Pedagogik ijodkorlik; Pedagogik muloqot; Muomala; Pedagogik masala; Pedagogik vaziyat; Empatiya; Pedagogik qobiliyat; Pedagogik texnika; O`qituvchining shaxsiy intilishi; Professiogramma; tashkilotchilik; Mo`ljallay olish; kuzatuvchanlik; Pedagogik texnika malakalari; Individual pedagogik texnika; Bir qolipdagi fikrlar; Pedagogik qobiliyat; O`qituvchining shaxsiy xususiyatlari; Ixtisosga oid metodik tayyorgarlik; O`qituvchi faoliyatida insonparvarlik

1. Pedagogik mahorat kursining predmeti, maqsad va vazifalari
Zamonaviy, ilg`or o`qituvchilarning ta'lim-tarbiya sohasida erishgan umumpedagogik tajribalari-qobiliyat va mahoratlari «Pedagogik mahorat» kursining predmeti hisoblanadi.

Mazkur qobiliyat, mahoratning mazmun-mohiyati, tarkibini sistema sifatida o`rganishda, oliy o`quv yurtlarida kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishda «Pedagogik mahorat» kursini o`rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. «Pedagogik mahorat» kursi o`qituvchilar, jumladan, bo`lajak o`qituvchilarni ta'lim-tarbiya ishlarga ilmiy metodik va amaliy jihatdan tayyorlashni o`z maqsad qilib qo`yadi. Uning asosiy vazifalari: bo`lajak tarbiyachi, o`qituvchida pedagogik ijodkorlik, topqirlik, pedagogik muloqot, o`qituvchi nutqi, o`quvchiga har tomonlama ijobiy ta'sir etish usullari, pedagogik texnika hamda tarbiyachining tarbiyachilik mahoratini shakllantirishdan iboratdir.

Amaliy-seminar darslarida esa, o`qituvchi nutqi va fikrlash madaniyati, pedagogik ta'sirning rang-barang usullari, tarbiyachi o`qituvchining tashkilotchilik mahorati kabi masalalar o`rganiladi.

Amaliy darslarida diqqat va xayolni to`plash mashqlari bajariladi. Laboratoriya va mustaqil ishlarda ajratilgan soatlarda pedagogik vaziyatlar hosil qilinib,

talabalar hamkorligida erishiladi. Bunday masala yoki pedagogik vaziyatlar o`qituvchining o`quvchilar bilan muomola qila bilish malakasini tarbiyalashda xizmat qiladi. «Pedagogik mahorat» kursining amaliy darslaridan muayan qismi maktablar va kollejlarda o`tkazilishi mumkin va ular nazariy bilimlarni mustahkamlashni ko`zda tutadi. «Pedagogik mahorat» faniniing boshqa pedagogik tizimdagi fanlardan asosiy farqi shunday, u o`qituvchi va o`quvchi munosabatlarida keng ijodiy imkoniyatlardan foydalanish uchun bitmas-tuganmas ijodiy faoliyat uchun maydon hisoblanadi.

2. Pedagogik mahorat tushunchasi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, uning oldiga juda qisqa muddatda yangicha fikrlovchi, respublika ravnaqi, taraqqiyoti uchun ongli ravishda kurashuvchi etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasi ko`ndalang turadi. Natijada «Ta'lim- to`g`risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Qonunlari qabul qilindi. Etuk mutaxassis va yangicha fikrlovchi shaxslarni shakllantirish uchun chuqur bilimning o`zigina kifoya qilmasligi O`zbekistnn Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning «barkamol avlol- O`zbekiston kelajagining poydevori» nutqida quyidagicha o`z ifodasini topdi. «Bizga maktabni bitirganlar emas, maktab tarbiyasini ko`rganlar kerak». Bu bilan prezident bilimlar yig`indisini egallashga emas, balki ularni egallab, turli kasb-hunarlar siri, mahoratini o`zlashtirishga xizmat etuvchi bilimlarni o`rganish lozimligini ko`rsatib berdi. Savol tug`iladi: Pedagogik mahorat nima o`zi? Pedagogik mahorat bu- fahm-farosat va bilimlarning, chinakkam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo`lgan obro`li rahbarlikning, o`quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati (emratiya), ichki dunyosi, nozik va zaif bo`lgan bola shaxsiga mohirona, avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga boy bo`lgan qobiliyat majmuasidir.

3. Pedagogik mahoratning tuzilishi. Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o`z ichiga oladi.

O`qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi;

Pedagogik iste'dod, qobiliyat

Pedagogik texnika (san'at)

Pedagogik shaxsiy intilishi.

1. Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'zicha paypaslab ijodiy izlanish olib boradi: bolalar bilan, pedkollektiv bilan qanday qilib yaqindan til topishish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ishida bolalar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq mumkin? degan savollarga javob izlaydi.

Bu savollarga beriladigan javoblar har bir mohir pedagogning ishida zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mazkur muammoni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch-g'ayratni, qat'iyatni tirishqoqlikni, ijodiylikni, o'z faoliyatni to'g'ri baholay bilish, shuningdek, bolalar, tarbiyalanuvchilarga nisbatan insonparvarona munosabatda bo'la olishni talab etadi. Ibn Sino «Tadbiri manzil» asarida bola uchun o'qituvchi tanlayotganda uning to'g'ri so'z, halol toza-ozoda va bolalarni sevuvchi kishi bo'lishiga e'tibor berishni ta'kidlaganida o'qituvchining insonparvarlik sifatini nazarda tutgan edi.

2. Har bir insonda u yoki kasbda qobiliyat mavjud bo'ladi. Ba'zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F. Gonobolin, N. Kuzmina), pedagoglik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi;

O'rta tusha bilish

Tashkilotchilik

O'zini idora eta bilish

Mo'ljal, chamalay bilish

Kuchlilik, zehnlilik

Faoliyatga ijobiy tomondan yondashish

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo'lgan, insonparvarlik nuqtai nazaridan turib yondashilgan taqdirdagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin.

3. Pedagogik texnika-pedagogik mahoratning asosiy qismlardan biri hisoblanib, u o`qituvchidan o`quvchilar bilan muomala qilganda zarur so`z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o`tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalikni va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi. Haqiqiy pedagogik ta'sir ko`rsatishda o`qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir paytda yaqqol ko`rinadi. Nutq imo-ishora, mimika, harakat bilan birga sodir bo`ladi.

Pedagogik texnika pedagogning individual psixik-fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagogning jinsi, yoshi, mijosi, fe'l-atvori, anatomik-psixologik xususiyatlariga ham bog`liq bo`ladi.

Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy tayyorgarlik darajasini, ya'ni shaxsning pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi. Pedagogning nutqi tartibsiz, qashshoq bo`lsa, o`zi jizzaki bo`lsa, didi past, madaniyatsiz bo`lsa, eng topib gapirgan to`g`ri so`zi ham tarbiyalanuvchilarga ta'sir etmaydi, balki teskari natijaga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham, tarbiyachi avvalo o`zi tarbiyalangan, jamiyatda o`tirib-turish, suhbatlashish madaniyatini qon-qoniga singdirgan bo`lishi lozim.

Har yigitning aslin bilay desangiz

Marakada o`tirib-turishin ko`ring (Maxtumduli)

4. O`qituvchining shaxsiy intilishi, munosabati pedagogik mahorat tarkibiy qismlari orasida muhim o`rinni egallaydi. Uning bunday shaxsiy munosabati unda tegishli bir qolipdagi fikrlar sistemasi mavjudligi bilan izohlanadi, shu tufayli u ko`p hollarda deyarli avtomatik tavishda ta'sirlarga javob bera oladi.

Chunonchi, o`quvchilar bilan albatta xushmuommalada bo`lish, dilkashlik o`quvchi shaxsiga printsiptial yondashishning yuqori darajada bo`lishi, o`zining birorta ham o`quvchisi yomon bo`lishi, buning ustiga ishonchsiz bo`lishi mumkin emasligiga ishonch kabilar.

Lekin bunday bir qolipdagi fikrlar salbiy rol o`ynashi ham mumkin. Masalan hamkasbi o`quvchilar bilan haqiqatda nazoratsiz munosabatda bo`lganda unga

qarshi turish o`rniga, uni himoya qila boshlaydi. O`qituvchining hohish istagi haqqoniylik va insonparvarlik xarakterida bo`lsagina bunday chekinishlarga yo`l qo`ymasligi mumkin bo`ladi.

4. Pedagogik faoliyat va mahorati. Pedagogik faoliyat-yoshlarni hayotga, mehnatga, Vatan mudofasiga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat va jamiyat oldida javob beradigan bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishi bilan shug`ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir.

Maktab o`qituvchilarning faoliyati Respublikamizda buyuk davlat-jamiyatni quruvchi va unda yashab mehnat qiluvchi etuk, erkin fikrlovchi inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O`qituvchining barkamol avlodni tarbiyalash va unda yangi insonga xos sifatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyjanob, yuksak va shu bilan birga eng sharaflari va murakkab vazifadir. Har bir tarbiyalanuvchi o`z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Ularni o`qitish va tarbiyalashda ularning ana shu o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o`rganish nihoyatda murakkabdir. Bunga insonlar o`rtasida ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o`zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatda tayyorgarlik ko`rsatgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim.

O`qituvchilik ixtisosning bu xususiyatlari uning professiogrammasida o`z ifodasini topadi. 1) O`qituvchining shaxsiy xususiyatlari; 2) O`qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo`yiladigan talablar; 3) Maxsus tayyorgarlikning hajmi va tarkibi; 4) Ixtisosga oid metodik tayyorgarlik mazmuni.

2- mavzu: Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o`qituvchi mahorati masalalari

Reja:

Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha bo`lgan davrda o`qituvchi shogird va ularning o`z jamiyatdagi o`rni

Buyuk Sharq mutafakkirlari pedagogik mahorat haqida

Xorijiy pedagoglar pedagogik mahorat to'g'risida.

Tayanch tushunchalar: Donolar uyi, Avesto, marosim urf-odat, e'tiqod.

Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi vujudga kelgan davrda ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etib borishi bilan jamoa a'zolari zarur vositalarni, oddiy ishlab chiqarish qurollari yasashga kirishdilar. Ularning bu harakati natijasida jamoada ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangi shakli yuzaga keldi, ishlab chiqarish aloqalarigina emas, balki mustahkam qarindoshlik, urug'chilik asosidagi ibtidoiy jamoa shakllanadi. Jamoada muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni ayollar bajaradilar, bola tarbiyasi ularning ixtiyoriyga topshirildi. Shu asosda jamoada ayollarning mavqei ortdi.

Miloddan oldin V asr boshlarida Xorazmda Ma'mun «Donolar uyi»-akademiyasi tashkil qilindi. Akademiyasida to'plangan Xunayn, Sabit ibn Kurra, Kusto ibn Luka, Yax'ya ibn Adiy, Ishaq ad-Damashqiy kabi olimlar ilmfan rivojida qilgan xizmatlari, ilm-adabiy, axloqiy masalalariga doir chet el asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shuhrat qozonadilar.

Bunday dinlardan eng qadimiysi va eng mashhuri zardo'shtlik dini, zardo'shtlik ta'limotidir. Zardo'shtlik dini va uning muqaddas kitobi bo'lmish «Avesto» qadimgi Turon zaminida buyuk madaniyat va ma'rifat hamda xalq pedagogikasi mavjudligiga yorqin dalildir.

«Eng mo'tabar qadimgi qo'lyozmalar «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo'layapti,-deydi prezident Islom Karimov,-bu nodir kitob bunan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlrga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonla bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi»

«Avesto» sof diniy kitob bo'lmay, ijtimoiy-falsafiy, madaniy, adabiy-tarxiy qimmatga ega bo'lgan nodir qomusiy yodgorlikdir. Unda adolat va sulh ulug'lanadi.

«Avesto» zardo`shtiylikning muqaddas kitobi bo`lish bilan birga, ilm-fan, hayotiy voqealar haqida mukammal ma'lumot beradigan eng ko`hna manbaa hisoblanadi. Unda O`rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi marosimlari: urf-odat, e'tiqod, ibodat, qiroat qiladigan oyatlar, diniy marosimlarda ijro etiladigan og`zaki ijodlari haqida ma'lumot berilgan.

«Avesto» shaharu qishloqlarni obod qilish, bog`u-rog`lar, yaylovlarni ko`paytirish, kishilarning madaniy turmushini rivojlantirishga undash, oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi xususida ham diqqatga molik fikrlar ifodalangan. «Avesto»da Xuroson va Movarounnahr xalqlarining axloq-odob, ta'lim-tarbiya, kasb o`rganish, mehnatsevarlik, mehmondo`stlikka doir fikr mulohazalari ham bayon qilinadi.

Zardo`sht o`z nasihatlarini o`gitlarida alolatni targ`ib etadi, yaxshi xulq-odobni e'zozlaydi. Uning ta'limoti uch nuqtada: Xumata-yaxshilik, Nuxta-to`g`ri so`z, Xvarishita yaxshi xulqlarda mujassamlashgan. U chorvadorlar, dehqonlar va hunarmandlar hayotini badaviy ko`chmanchi yo`l to`chg`sarlar chopqinidan himoya qiladi. Adolat va odillik g`oyasini olg`a suradi.

«Avesto»da yaxshilik, unib-o`rish, erda hayotni saqlash uchun intiluvchi kuchlar bilan razolat va qabohat, zulmat va halokat kuchlari o`rtasidagi kurashda mardlik, jasorat va matonat, ma'rifat va insoniylik g`alaba qozonadi.

«Avesto»da er, suv, zamin, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish saqlashga alohida etibor berilgan. Unda go`ristonlarda tozalikka rioya qilish kerakligi takidlanadi. Axura Mazda o`t-o`lanlar va mevali daraxtlar ekilgan, suvlari ravon bo`lgan er eng yaxshi er, ayol va farzandlari sarson va sargardon yuradigan (g`izo topolmaydigan) er eng yomon er ekanligini aytadi. Erni iflos qilgan va uni saqlash qoidalarini buzgan shaxslar jazolanishi kerak.

«Avesto»da inson tozalikka, sog`lomlikka da'vat qilinib, ularga badan tarbiya bilan shug`ullanish, kunda yuz-qo`lni bir necha marta yuvish, sochni toza tutib, tirnoqlarni olib tozalab turish tavsiya etiladi. Inson me'yori bilan ovqatlanib doimo to`q yurishi lozimligi uqtiriladi.

Bola asosan oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa, hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) hisoblanadi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o`qishi va so`ngra esa, yozishni o`rganish bilan eng yuksak pog`onaga ko`tarilsin.

«Avesto» dagi bunday fikrlari xalq pedagogikasida ham o`ziga xos tarzda ifodalangan.

Pedagogik mahoratning asosiy poydevorini kasbga doir bilimlar tashkil etadi. Bunday bilimlar mazmuni esa o`qitilayotgan fan mazmuni, metodikasi, pedagogikasi va psixologiyasiga doir bilimlarni o`z ichiga oladi. Shuningdek uchun ham O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim-to`g`risida» gi qonunda (5- modda): «Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi, boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo`lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug`ullanish huquqiga ega» deb ta'kidlangan.

«Ta'lim to`g`risida» gi qonun talablarini bajarish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishni, demak, bo`lajak o`qituvchilarda pedagogik mahoratni shakllantirishni talab etadi.

Quyida biz buyuk sharq mutafakkirlarining pedagogik mahoratga doir ayrim fikrlarini keltiramiz.

Buyuk mutafakkir Muhammad al-Xorazmiy «Al-jabr val muqobala» nomli asarida pedagoglar faoliyatiga baho berib quyidagilarni yozga edi: «Ulardan biri o`zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o`zib ketadi. Va o`zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, tabiat sirlarini oyaadi, yo`lini yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganini to`playdigan odam bo`lib, u o`zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo`ladi, takabburlik qilmaydi va o`zi qilgan ishdan mag`rurlanmaydi». Bu bilan olim pedagogning qiyin muammolarni oson qilib tushuntira olish, ijodkorlik kabi mahoratlarini qo`llab-quvvatlaydi.

Abu Nasr Farobiy o`zining «Baxt saodatga erishuv» nomli asarida ta'lim-tarbiya berish usulim ikki turga bo`ladi: rag`batlantirish va jazolash (majbur qilish). U mazkur usullarni izohlar ekan, o`qituvchining pedagogik mahoratiga ham

to`xtalib o`tadi. «Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo`lib, u tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo`ladiki, hukumat va muallim har ikkovi o`z yo`lida bolalar yoki xalqqa tarbiya beruvchilar, ustoz va muallimdir, ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so`zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi» (108-B).

Uningcha pedagogiklik kasbi bilan o`zida 12 tug`ma xislatni
mujassamlashtirgan kishilar shug`ullanishi lozim.

Barcha organlari mukammal taraqqiy etgan;

Barcha masalani tez va to`g`ri tushuna oladigan;

Xotirasi kuchli bo`lgan;

Zehni o`tkir bo`lgan;

Nutqi ravon bo`lgan;

Bilish va o`qishga muhabbati kuchli bo`lgan;

Ko`zi to`q, pokiza bo`lgan;

Haqiqatparvar bo`lgan;

G`urur va vijdonli bo`lgan;

Pulni sevmaydigan;

Adolatli;

Qat'iyatli, qo`rmas va jasur kishilar.

Shu bilan birga u «Ta'lim-tarbiya ahillari ham o`z bilimlarining darajasiga qarab» bir-birlaridan farq qilishlari, ortiq-kam bo`lishlari, ba'zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo`lmasligi, ba'zilarida esa bu quvvatning kamroq bo`lishini ta'kidlaydi. Farobiy shogirdga nisbatan o`ta qattiq yoki o`ta yumshoq munosabatda bo`lishning zararli ekanligini ham ta'kidlab o`tadi. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning tabiatga mosligi, ta'lim va tarbiyada mo`tadillik printsiplarini asoslagan buyuk pedagogdir.

Beruniy insonni tabiatning bir qismi deb biladi. Tabiatni va jamiyat ilmini o`rganishda «O`zimning tekshirib ko`rmaguncha ishonmayman» degan shiorga amal qiladi. U mohir pedagog sifatida pedagogik mahorat masalasida o`zining

qaror tavsiyalarini ishlab chiqadi: «O`qituvchini hamma narsaga o`rgatish» sa'nati, tabiatga moslik, bolalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish kabilar shular jumlasidandir. Beruniy: «Maqsad vaqtni cho`zish emas, balki o`quvchini zerikmaslik. Chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O`quvchi fandan-fanga o`tib tursa, turli bog`larda yurganga o`xshaydi. Birini ko`rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va o`quvchi «Har bir yangi narsaga o`ziga yarasha lazzat bor»- deyilganidek, ularni ko`rishga qiziqadi va ko`zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotira malol keltiradi», - deb yozgan edi.

Beruniy o`qitish jarayonida quruq yodlashni qoralaydi. U «Tushunish yodlashdan yaxshiroq va afzaldir». «Kuzatishning ko`pligi narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi», deb uqtiradi. U o`zining «Osor al-boqiy» asarida «Butun kuchimni yig`ib, bor imkoniyatni ishga solib, goh eshitish, goh ko`rish va g`iyos qilish orqali, bilimim etganicha u narsani bayon etishga bel bog`ladim», deb yozar ekan, har bir pedagogning ham ana shunday sifatlarga ega bo`lishini orzu qiladi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino o`zining «Tadbiri manzil», «Tib qonunlari» kabi asarlarida pedagogik mahoratga doir o`z qarashlarini yozib qoldirgan. Masalan, u «Tadbiri manzil asarida bolaga ta'lim berishni o`qituvchining pokiza, adolatli, farosatli, sog`lom, notiq va o`z kasbining ustasi bo`lishi lozimligini ta'kidlaydi. «Tib qonunlari» asarida esa, o`qituvchining nutq gigienasiga doir maslahatlarini bergan: «Uzoq muddat davomida qattiq tovush bilan baqirish juda xavflidir. Chunki baqirish ko`p miqdorda havoni tashqariga chiqarishni talab qiladi (bularning har ikkisi ham) xavflidir». («Ovozni yuqotmaslik, nafas olish organini ishdan chiqarmaslik uchun, avvalo o`qishni past ovoz bilan, keyinchalik asta-sekin kuchaytirish lozim, lekin kuchli ovoz bilan o`qish ham uzoq davom etmasligi kerak»).

Yusuf-Xos Xojib «Qutudg`u bilig» asarida o`g`il-qizga ta'lim-tarbiya beruvchining shaxsi haqida quyidagilarni yozadi.

Murabbiyni yaxshi kishilardan oltin,

O`g`il-qiz pok o`sadi (nomatlub ishlardan) forig` turadi

O`g`il-qizga bilim va odob o`rgat,

Ikki olammiki, uning manfaati etarli bo`ladi

O`g`ilga barcha san'ati-hunarlarini tugal o`rgat,

Burhoniddin Zarnudjiy (1150 y) «O`quvchiga ta'lim yo`lida qo`llanma» asarida

bilimlarni tez va puxta o`zlashtirish usullarini ishlab chiqdi, uningcha:

«O`rganuvchilar zimmasida barcha fanlar orasidan eng muhimlarini tanlash vazifasi turadi.. bilimlarga bo`lgan qiziqish shuni talba etadiki, u o`qituvchisiga

va o`rganayotgan faniga, kitobiga nisbatan to`la qonlatli bo`lsin, toki muvaffaqiatsizlikni o`zidan yiroqlashtirish, bilimning maxsus bo`limiga

nisbatan ham shunday ish tutmoq kerak.

Bilimlarni chuqur o`zlashtirishning 6 sharti mavjud: aql-farosat, kuchli istak, chidam, oziq-ovqat, o`qituvchi ta'limi va bilim olish uchun etarli vaqt, mashg`ulotlar davomida o`qituvchilar muallimdan «biro`q-yoy» masofada o`tirishsin, shunda o`quvchining o`z o`qituvchisiga hurmat namoyon bo`ladi.

O`qib-o`rganish uchun

eng yaxshi vaqt-yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi

ana shu vaqtni samarali tashkil etishga datlantirilsin, bordi-yu unga bir fan

zerikarli bo`lsa, boshqasi bilan mashg`ul bo`lsin.

«Tarbiya san'ati shunday xususiyatga egaki,-degan edi K. Ushinskiy, -deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo`lib tuyuladi-odam

bu tsh bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo`lsa.unga shunchalik tushunarli va oson bo`lib ko`rinadi. Deyarli buning uchun tug`ma

qobiliyat va malaka, ya'niko`nikma kerak deb aytadilar: lein juda kam odam sabr-toqat, tug`ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar

kerakligi haqida ishonch hosil qiladi».

V. Suxomlinskiy, A. Makeyenko, A. Disteyerg, L. Tolstoylar ham insonga bilim, ko`nikma va malakalarni singdirishda pedagogik mahoratning roli buyuk

ekanligini ta'kidlaganlar.

Masalan, L. Tolstoy haqiqiy o`qituvchi shaxsiga klassik tavsif berib quyidagilarni yozgan edi: «Agar o`qituvchi faqat o`z ishiga havas qo`ygan bo`lsa, u yaxshi o`qituvchi bo`ladi. Agar o`qituvchiga faqat otasi, onasi kabi havas qo`ygan bo`lsa, u oldingi o`qituvchidan yaxshiroq bo`ladi. Bordi-yu, mujassamlashtirsa, u holdau mukammal o`qituvchi bo`ladi». Kasbiy tayyorgarlikning ahamiyatini yaxshi tushungan A. Disterverg esa: «O`zing bilmagan narsalarni birovlariga o`rgata olmaysan», -degan edi.

Pedagogik mahoratni shakllantirishda o`qish san'atining roli haqida Emil Tagi shunday degan edi: «O`qish san'ati o`zganing ko`magi yordamida fikr yuritish san'atidir. O`qish o`zga bilan birgalikda fikrlash, o`zganing fikrini mulohaza qilib ko`rish, o`zimizning fikrlarimizni o`lchash va unga zid fikrlarni xayoldan o`tkazish demakdir».

Andrey Maria esa A. Navoiy kabi, insonni kamolga etkazish haqida gapirib: «Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag`ishlaydi, baxt keltiradi» deb yozgan edi.

3- mavzu: O`qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat

Reja:

Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi

Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari

Tayanch tushunchalar: Empatiya, pertseptiv, konstruktiv, kommunikativ
O`qituvchi maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisi.
O`quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi asosan o`qituvchiga, uning kasbiga, iymon-e'tiqodiga bog`liq bo`ladi. Shuning uchun o`quvchilar tarbiyasiga oid pedagogik ishlar maxsus uyushqoqlik hamda muayyan malaka va ko`nikmalarnigina emas, balki pedagoglik qobiliyatlari darajasiga taalluqli bir qancha psixik xususiyatlarning ham mavjud bo`lishini talab etadi.

1. Didaktik qobiliyatlar. Biz didaktik qobiliyatlar deganda, o`qituvchining o`quv materialini o`quvchilarga tushunarliqilib bayon eta olishini, material yoki biron

bir muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishini, o`quvchilarda mustaqil ravishda aktiv fikrlashga qiziqish uyg`otishini tushunamiz.

2. Akademik qobiliyatlar. Akademik qobiliyatlar deganda, fanning tegishli sohalariga oid ko`p qirrali bilimlarga ega bo`lishini tushunamiz.

3. Pertseptiv qobiliyatlar. Pertseptiv qobiliyatlar deganda, o`quvchilarning, trabiyanuvchilarning ichki dunyosiga kira olishni, o`quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixik holatlarini juda yaxshi tushunish bilan bog`liq bo`lgan psixologik kuzatuvchanlikni tushunamiz.

4. Nutq qobiliyatlari. O`qituvchining nutq qobiliyatlari deganda, mimika va pontomimika vositasida o`z fikrhamda his-tuyg`ularini aniq va ravshan so`zlarda ifodalashini tushunamiz. Nutq o`qituvchilik kasbida eng muhim qobiliyatlardan biridir, chunki bunda axborotning o`qituvchidan o`quvchiga o`tishi asosan ikkinchi signallar, so`z xarakaterida bo`ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyatlari. O`qituvchining tashkilotchilik qobiliyatlari deganda, birinchidan o`quvchilar jamoasini uyushtirishni, jipslashtirishni, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o`z shaxsiy ishini uyushtirish qobiliyatlarini tushunamiz.

6. Avtoritar qobiliyatlar. «Avtoritar» so`zi lotincha bo`lib, «ta'sir, kuch» degan ma'noni anglatadi. Demak, bunda o`qituvchining o`quvchilarga bevosita emotsional irodali ta'sir ko`rsatish va shu asosda obro` qozona olish qobiliyatini tushunamiz.

7. Kommunikativ qobiliyatlar. Kommunikativ qobiliyatlar deganda o`qituvchining bolalarga aralashish qobiliyatini, o`quvchilarga to`g`ri yondashish yo`lini topa olish, ular bilan pedagogik nazokatining mavjudligini tushunamiz.

8. Pedagogik xayol. Pedagogik xayol deyilganda, o`qituvchining o`z harakatlarining oqibatlarini oldindan aniq-ravshan ko`rishda, o`quvchining kelajakda qanday kishi bo`lishi haqidagi tasavvur bilan bog`liq bo`lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda tarbiyanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiy

etishini oldindan bashorat qila olishda, aytib bera bilishda ifodalanadigan maxsus qobiliyatlarini tushunamiz.

9. Diqqatni to`g`ri taqsimlash qobiliyati. O`qituvchining diqqatini to`g`ri taqsimlash qobiliyati deganda diqqatni barcha xususiyatlarining ham hajmi, ham uning kuchi, ham ko`chuvchanligi, ham idora qilina olishi, ham ishga solinishining taraqqiyo etgan bo`lishi muhimligini tushunamiz.

10. O`qituvchining kuzatuvchanlik qobiliyati. Buyum va hodisalardagi muhim, lekin ko`zga kam tashlanadigan narsalarni payqab olishga kuzatuvchanlik deyiladi.

Pedagogik qobiliyatini aniqlash testi.

Har bir pedagogik-psixologik vaziyatlarda berilgan javoblardan birini tanlang.

1-holat. Dars boshlandi, hamma ishlayapti. Lekin bir o`quvchi kulib yubordi.

Siz qaradingiz. U esa «qachon siz dars o`tsangiz kulgim keladi», -dedi Siz esa:

A) Zo`r-ku

B) Nimasi kulguli;

V) Bemalol;

G) Nima, ahmoqmisan?

D) Hazilkashlarni yaxshi ko`raman;

E) Kuldira olganimdan xursandman.

2- holat. Sinfda bir oz vaqt dars o`tganingizdan so`ng sizga o`quvchi: «Siz bizga biror narsa o`tgatishingizga ko`zimiz etmayapti», dedi. Siz esa:

A) Sni vazifang o`qish, o`qitish emas;

B) Senga o`xshaganni albatta, hes narsaga o`rgatib bo`lmaydi;

V) Balki boshqa sinfga o`tarsan?

G) O`zing hohlamayapsan;

D) Nega shunday deb o`ylaysan;

E) Bu haqda gaplashib olamiz, balki mendagi qaysidir xislat seni shunday xulosaga keltirgandir.

3-holat. Siz o`quvchiga topshiriq berdingiz, u esa sizga; «Men bu ishni bajarmayman», -dedi. Siz:

- A) Xohlasang ham, xohlamasang ham ishlashga majbursan;
- B) Bo`lmasa nega o`qishga kelding?
- V) O`zing uchun yomon;
- G) Nima bilan tugashini o`ylaysanmi?
- D) Nima uchunligini tushuntirib bera olasanmi?
- E) Kel, o`ylab ko`raylik, balki sen haqdirsan.

4-holat. Bir o`quvchi sizga: «Men ham boshqa o`quvchilardek «a'lo» o`qishim mumikn. Shuncha urinsam ham bo`lmayapti», -dedi. Siz esa:

- A) To`g`risini aytsam bilmadim;
- B) Albatta, o`qiy olasan;
- V) Sening qobiliyating yaxshi, men senga ishonaman
- G) Nega o`zingga ishonmaysan?
- D) Kel, muommoni qanday hal qilish mumkinligi ha-ida gaplashib olaylik
- E) Birga qanday ishlashimizga bog`liq.

5-holat. Darsga kirayotganda o`quvchi Sizga: «Juda charchabsiz», ko`rinishingiz yomon», -dedi. Siz nima deysiz?

- A) Menga bunday deyishingiz madaniyatsizlik;
- B) Ha, men juda charchadim;
- V) Men haqimda qayg`urma, o`zingni o`yla;
- G) Yaxshi uxlolmadim, ishim juda ko`p edi;
- D) E'tiboring uchun rahmat

6-holat. O`quvchi sizga: «men sizning faningizni yaxshiroq bilishim mumkin, chunki qo`limdan hamma ish keladi», dedi. Sizning javobingiz?

- A) O`zingni yuqori baholaysan;
- B) Shu qobiliyating bilan-a;

V) Demak o`zingga ishonasan, bo`lishi mumkin;

G) Ko`p ham o`zingga ishonma;

D) Senga ishonaman, chunki qobiliyating bor, mehnat qilsang bo`ladi.

7-holat: O`quvchi sizga: «men yana daftirimni uyda qoldiribman», -dedi.

Sizning javobingiz?

A) Yana-mi?

B) Buncha mas'uliyatsizsan;

V) O`zingni qo`lga olishingiz kerak;

G) Nega, nima uchun?

D) Biror sababi bor bo`lsa kerak.

Undagi holatlarga qanday javob berishingizga qarab sizning pedagogik qobiliyatingiz namoyon bo`ladi. Savollarning A) javobi 1 ball, B) javobi 2 ball, V) javobi 3 ball, G) javobi 4 ball, D) javobiga esa 5 ball qo`yib chiqing. Siz qaysini tanlagan edingiz, hisoblang. To`plagan balingiz:

7-14 gacha-Siz umuman pedagog bo`la olmaysiz.

15-25 gacha bo`lsa- Siz pedagog bo`la olasiz, lekin ideal (mukammal) emas.

26-35 gacha bo`lsa- Siz haqiqiy pedagogsiz, ideal pedagog bo`lishga imkoniyat katta.

4- mavzu: O`qituvchining kommunikativ qobiliyati

Reja:

1. Kommunikativ ko`rinishlar

2. Pedagogik nizo kamchiliklar hamda ularning oldini olish yo`llari

Tayanch tushunchalar: Qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, pedagogik nizo, muommila

Muomala kommunikativ faoliyat sifatida baholanganida, kommunikativ texnologiyaga esa faoliyatli yondashuv tatbiq qilinganida, eng avvalo ijtimoiy pozitsiyalar, nuqtai nazarlar, qarashlar, baholash tizimini shakllantirishni

tashkillashtirish boshqarish jarayonlarining psixologik talqini nazarda tutiladi. Mazkur ijtimoiy psixologik holat uchta ko`rinishdagi kommunikativ shakllarda o`z ifodasini topadi:

1. Monologik (muomalaning boshqa ishtirokchilari fikrini eshitishga qaraganda suhbatning tashkilotchi sub'ekti shaxsiy bildirishi kommunikativ hatti-harakatlar ustivorligida o`tadi;
2. Dialogik (o`zaro ta'sir o`tkazishning sub'ektlari o`zaro tashabbuskor, faol, bir-biriga ta'sirkor tuyg`ularini namoyish qiladi;)
3. Polilogik (ko`pqirrali muomala turi hisoblanib, kommunikativ tashabbusni egallash uchun muloqotdoshlar o`ziga xos kurash xususiyatiga moyildirlar, bu narsa ko`pincha uni maksimal darajada samarali amalga oshirishga intilishi bilan aloqadordir).

Muomalani faoliyat sifatida tasavvur qilish uni muayyan sodda xatti-harakatlar tizimidan iborat ekanligini bildiradi va quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- a) muomalaning tashabbuskor sub'ekti sifatida;
- b) tashabbus yo`naltirilgan sub'ekt tariqasida;
- v) muomalaning tashkillashuv me'yorlari qabilida;
- g) muomalaqatnashchilari ko`zga tutadigan maqsadlari ko`rinishida
- d) o`zaro ta'sir o`tkazish amalga oshadigan vaziyat yo`sinida kabilar.

Muomalaning har qaysi harakati (akti) o`zaro aloqador kommunikativ hatti-harakatlari zanjiri tariqasida tasavvur qilinishi mumkin, chunonchi;

1. Muomala sub'ektining kommunikativ vaziyatga kirishi; loshlohorld
2. Muomala sub'ekti tomonidan kommunikatiya xususiyatining baholashi (ijobiy yoki salbiy; maqbul ki nomaqbul; muvaqqat yoki davomli);
3. Kommunikativ vaziyatga yo`nalganlik;
4. O`zaro ta'sir ko`rsatish imkoniyatini vujudga keltirish maqsadida boshqa sub'ktni tanlash;
5. Muomala vaziyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda kommunikativ topshiriqlarni belgilash;
6. O`zaro ta'sir ko`rstaish sub'ekti nisbatan maxsus yondashuvni tatbiq etish;

7. O`zaro ta'sir ko`rsatish sub'ekt sherigi niyatiga moslashish;
8. Sherik sub'ekt diqqatini sub'ekt tashabbuskor tomonidan jalb etish;
9. Sherik sub'ektning emotsional psixologik holatini baholash va uni o`zaro ta'sir krsatishga kirishishga tayyorgarlik darajasini aniqlash;
10. Sherik sub'ektning emotsional psixologik holatiga nisbatan tashabbuskor sub'ekt o`zini-o`zi tayyorlashi;
11. Muomala sub'ektlari emotsional psixologik holatlarni o`zaro tenglashtirish (mutanosiblashtirish), umumiy emotsional ko`rinishni shakllantirish;
12. Sherik sub'ektga tashabbuskor sub'ekt tomonidan kommunikativ ta'sir o`tkazish;
13. Sherik sub'ekt reaksiyasini tashabbuskor sub'ekt tomonidan baholashnishi;
14. Sherik sub'ektning fikriy javobini rag`batlantirish;
15. Muomaladosh (muloqotdosh) sherik sub'ektning fikriy javobi.

Muomala hatti-harakati majmuasi yuqoridagi 15 ta moddadan tashkil topgandir.

Shunday qilib, muomala akti vujudga kelishi uchun tashabbus mutlaqa zaruriyatdir. Shuning uchun muomala sub'ekti agarda o`ziga mazkur tashabbusni olsa, biz uni tashabbuskor sub'ekt deb nomlaganmiz, shu tashabbusni qabul qiluvchi boshqa qatnashchini sherik sub'ekt deb ataganmiz.

Muomaladoshlarning xulqida bevosita shakllanuvchi tashqi jabha kommunikativ harakatlarda ifodalanadi. Muomalaning ushbu jabhasi o`ziga xos ko`rsatkichlar yordami bilan qayd etiladi:

Muomalada kommunikativ faollik;

Muomalada harakatning jadalligi;

Muomalada tashabbuskor;

Muomalada kommunikativ mahorat;

Muomalaning ichki jabhasi o`zaro ta'sir vaziyatini sub'ektiv tarzda idrok qilish, voqelik yoki kutilma muloqotga nisbatan javob harakatlari (reaktsiya), motivlar va maqsadlar bilan mazkur jarayonda insonning chiqishini aks ettiradi.

Muomalaning ohangi, o`ziga xosligi quyidagicha aniqlanadi:

muomala ahongi: xotirjam, hukmrona, hayajonli, til yog`lamalik;

muomala jarayonidagi xulq: qat'iyat, havotir, ishonchsiz, tortinchoq;

muomala o`rinishi: intilish, shaxsiy, ijtimoiy, ommaviy.

Muomala ko`rinishi sheriklarning munosabati xususiyatini aniqlab beradi.

Jumladan, intilish va shaxsiy oralig` muloqotdoshlar bir-biriga yaqin odamlar yoki do`stlar ekanligidan dalolat beradi. ijtimoiy oralig` rasmiylikka, ommaviy

esa muomalaning aqliy namoyishkorona xususiyatiga ishora qiladi.

Muomala uslubi-bu odamlarning o`zaro ta'sir etishining individual-tipologik xususiyatidir. Muomala uslubida ko`pincha quyidagilar o`z aksini topadi.

insonni kommunikativ imkoniyatlarining hususiyatlari;

jamo'a a'zolari va yakka idam bilan yuzaga keladigan munosabatlarning

xususiyatlari;

insonning ijtimoiy yoki psixologik individualligi;

muloqotdosh sheriklarning shaxsiy xususiyatlari va boshqalar

Muomala uslubining negizini ahloqiy-odobiy (etik) attityud va jamiyatning

ijtmoiy-adabiy (etik) attityudini baholash tashkil qiladi, chunonchi:

ijodiy mahsuldor

do`stona

bomasofa

tazyiqnoma

ommabop

hizilnoma

xushmadgo`ylik

talabchan

ishbilarmonlik

qat'iyatnoma

- muomala uslubi o`zaro ta'sirning emotsional tabiatiga va vosita tanlashga ta'sir etadi.

5-mavzu: O`qituvchi va o`quvchi orasidagi muloqot madaniyati va psixologiyasi. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi

Reja:

Pedagogik muloqot

Muloqotga kirishishda milliy qadriyatlar

Tayanch tushunchalar: Interaktiv, pertseptiv, stereotipizatsiya, refleksiya, identifikatsiya

Muomala-hamkorlik faoliyatning ehtiyojidan vujudga kelib chiquvchi, shaxslararo muloqot rivojlanishining ko`pqirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi ma'lumotlariga qaraganda muomala ushbu tarkiblardan tashkil topgan bo`ladi:

Kommunikativ (bir tomonlama) axborot uzatish

Interaktiv (ikki tomonlama o`zaro ta'sir)

Pertseptiv (o`zaro bir-birini idrok qilish).

1. Muomala o`z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o`zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo`lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bo`lmish nutq faoliyatiga bevosita murjaa qiladilar.
2. Muomalaning ikkinchi tomoni-muloqotga kirishuvchilarning o`zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so`z orqali fikr almashinuvi, balki hatti-

harakati va xulq-atvori bilan o`zaro ta'sir o`tkazish, ta'sirlanishdan (masalan, o`qituvchi va o`quvchilar) iboratdir.

3. Muomalaning uchunchi tomoni shundan iboratki, bunda muloqotga kirishuvchilar (muloqotdoshlar) o`zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo`ladi, insonni inson tomonidan idrok qilish yuzaga keladi. Masalan, bu jarayonning eng zarur tomoni shuki, unda muloqotga kirishuvchi, ya'ni muloqotdosh (sharik) larning bittasi ikkinchisining ishonchiga loyiq, aqlli, farosatli, tajribali, yuesak tayyogarlikka ega inson sifatida uni idrok qilish juda muhim ekanligini anglash yoki bir-birlarini oldindan hech narsani tushunmaydi, uzatilgan axborotni fahmlay olmaydi, deb taxmin qilish nazarda ruhiy holat vujudga keladi.

Muomalaning har uchala tomonini (jabhasini) birlikda, yaxlit hodisa sifatida olib qarash natijasida u hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usuli va unda ishtirok etuvchilarning, ya'ni muloqotdoshlarning o`zaro munosabatlari tariqasida namoyon bo`ladi, muayyan tarzda davomiylikka erishadi. O`qituvchilarning faoliyati uchun eng muhim narsa-muomalaning qonuniyatlari, uning rivojlanishi to`g`risidagi psixologik bilimlar, ko`nikmalar va qobiliyatlarni egallashdir.

Kasbiy muammoni muvaffaqiyatli ravishda shunday echish mumkinki, qachonki o`qituvchi o`quvchilar (talabalar) bilan hamkorlik faoliyatiga samarali kirisha olsa, shaxsni shakllantirishning maqsadi va vazifalariga javob beruvchi o`zaro ta'sir, o`zaro tushunuvni yo`lga qo`ya bilsa, faqat mana shundagina pedagogik muomala amalga oshadi, xolos.

Pedagogik muomala-bu o`qituvchining o`quvchi (talaba)larga ta'sir o`tkazish usullarining muayyan tizimini aks ettirishdir.

- hamkorlik ishtirokchilarining o`zaro axborot almashuvi;
- turlicha kommunikativ vositalar yordamida o`qituvchi tomonidan o`quvchi (talaba)lar bilan o`zaro ta'sir va o`zaro munosabatlarni tashkil qilish;
- muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishni rejalashtirish va o`tkazish funksiyasini bajarish kabilar.muomala va shaxslararo munosabatlarda

talaba bilan o`qituvchi o`rtasida turli darajadagi ayrim nizoli holatlar ucharab turadi:

- o`qituvchi bilan o`quvchi (talaba) o`rtasida fikriy yakdillikning yo`qligi,
- foyda, naf to`g`risidagi ijtimoiy muammoda shaxsiy fikriy qarama-qarshilik mavjudligi,
- ayrim ma'naviy to`siqqa ega ekanligi,
- narsa va hodisalarning shaxsiy ma'no kasb etishi,
- ehtiyojlarning nufuzliligi,
- faoliyat, muomala, xulq uyg`unligining buzilishi kabilar.

Psixologiya fanida muomala insonlarning o`zaro tushunishi sifatida talqin qilinadi. Bu muammo ta'lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va shaxslararo idrok qilinishning mexanizmi sifatida quyidagilar namoyon bo`ladi:

- stereotipizatsiya (ajdodlar tomonidan qo`llanilgan ma'lumotlar odatlar, aqidalar hech o`zgarishsiz hozirgi zamon odamlarining foydalanishi)
- identifikatsiya (katta) yoshdagi odamlar, o`qituvchi mahorati, xulq odobi andoza sifatida yoshlar tomonidan qabul qilinib, unga o`xshashlikka intiish, taqlid qilish, idealdagi xislatlarni o`zida shakllantirish.
- refleksiya (o`z imkoniyati va xulq-atvorini bilish, muloqotdoshining odobi, fahm-farosotini anglash) kabilar.

Shaxs to`g`risidagi dastlabki axborotlar, ma'lumotlar, uning tashqi ko`rinishini baholashga aloqador namoyon sub'ektiv baholashni keltirib chiqaradi. Lekin o`zaro fikr almashish, muloqotga kirishish davomida omillar tobora haqchillashib, ob'ektivlashib boradi.

Pedagogik muomalada tsikari aloqa yo`li bevosita ishtirok etadi:

- ma'ruza, seminar, laboratoriya mashg`uloti, diktant, insho boshqa mustaqil ishlar bajarilish jarayoni hamda ularning sifatida,
- qatnashchilarning yuz harakati, mimikasi, nutq intonatsiyasi, imo-ishoralar, qaddi-qomat tutishi,

-o`zini o`zi boshqarish (xulq-atvori, aqliy harakati, jiddiylik) singari axborot beruvchi (o`qituvchi) bilan uni qabul qiluvchi, o`quvchi yoki talaba o`rtasida uzluksiz muloqot amalga oshib turadi. Ana shu aloqa yo`llari orqali teskari munosabat o`rnatiladi, binobarin, o`qituvchi o`z faoliyatining natijasi yuzasidan muayyan ma'lumot olishga muvaffaq bo`ladi.

Muomala madaniyati, muloqot maromi, pedagogik odobiga o`rgatishning treninglari mavjud bo`lib, ularga hamkorlik faoliyati qatnashchilarini o`rgatish mumkin. Treninglar o`z ichiga odatda quyidagilarni qamrab oladi: 1) yurish-turish, javob berish, o`zgalarga e'tibor qilish mashqlari, 2) muomala qilish usuli, ko`nikmasi, malakasi va odati yuzasidan mashqlar, 3) muomalaning umumiy qonuniyatlarini o`rganish, ya'ni pedagogik muomala tizimini egallash mashqlari, 4) pedagogik kommunikatsiya texnologiyasi va instruksiga oid treninglar va boshqalar.

Endi ayrim treninglarning mohiyatini qisqacha sharhlab o`tamiz:

1. Muomalaning umumiy qonuniyatlariga oid treninglar:

- pedagogik odob mohiyati va unga rioya qilish yo`llariga taalluqli treninglar (milliylik, ma'naviyat, stereotiplar, identifikatsiya, refleksiya bo`yicha),
- muayyan rollar, psixodramalar orqali vaziyatning psixologik manzarasini yaratish o`yinlari,
- ishbilarmonlik o`yinlar, favqulotdagi holatlarda o`zini o`zi boshqarishga doir mashqlar.

2. Pedagogik kommunikatsiya texnologiyasi va instruksiyasini egallashga oid treninglar:

- muomala ko`nikmasini o`zlashtirish bo`yicha (qaddi-qomat tutish, nutq faoliyati, o`zgalarni tushunish va anglash),
- mimika va pantomimika mashqlari,
- audiotrening (magnit tasmmi o`zuvchiga asoslanib o`z nuqsonlari bo`yicha korrktsion ishlar o`tkazish),
- videomagnitofon orqali faktik materiallar bo`yicha tuzatish mashqlarini bajarish,

-ko`zga yordamida xatti-harakat, yurish-turish ko`nikmalarini egallash va shaxsiy nuqsonlarini bartaraf etish, yo`qotish,
-motivatsion, emotsional, regulyativ, kognitiv jabhalarining namoyon bo`lishiga qarab muomala texnologiyasi va instruktsiyasini maqsadga muvofiq ravishda o`zgartirish,
-pedagogik vaziyatga, holatga oid stsenariylar negizida tuzatish ishlarini olib borish va yangi fazilatlarni shakllantirish mashqlarini o`tkazish kabilar.

Shu narsani alohida ta'kidlab o`tish joizki, inson shaxsini shakllantirishda o`quv va mehnat faoliyati, xulq-atvor malakalari qanday yuksak ahamiyat kasb etgan bo`lsa, muomala jarayoni ham xuddi shunday mas'uliyatli vazifani bajaradi.

6- mavzu: O`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi muloqot madaniyati

Reja:

O`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi muloqot

Muloqot jarayonini boshqarish

Tayanch tushunchalar: Avtoritar, demokratik, liberal, monologik dialogik. Izlanishlarning ko`rsatishicha pedagogning o`quvchilarga nisbatan bo`lgan ijobiy munosabati, ularga tiniq, bosiq anda murojaat qilishi o`quvchilarda erkinlikni his qilishda yordam beradi. o`quvchilarga noto`g`ri munosabatda bo`lish ularda ishonchsizlik kam gap bo`lishga, o`quvchilarni laganbardorlik kabi yomon fazilatlar shakllanishiga olib keladi. O`quvchilar tomondan yaxshi ko`ringan, hurmat qozongan o`qituvchining gapi, begona, yomon ko`ringan o`qituvchining gap-so`zlariga qaraganda, o`quvchi tomondan umuman boshqacha qabul qilinadi.

O`quvchilar orasida hurmat va ishonch qozongan o`qituvchining so`zlariga amal qilishga harakat qiladilar. O`qituvchi o`zaro ta'sirini turlicha amalga oshiruvchi rahbar hisoblanadi. Rahbarlik qilishning 3 xil uslubi mavjud:

Avtoritar

Demokratik

Liberal uslublardir.

1. Avtoritar uslubda o`qituvchi guruppa faoliyatini muammolarni o`zi hal qiladi: masalan, qaysi o`quvchi kim bilan o`tirishi. O`qituvchining muomalasining asosiy formasi buyruq berish, majburlab ish buyurish, urishish yoki jazo berishdir. Bunday pedagogning rag`batlantirishi ham xuddi kamanda bergandek bo`ladi. O`qituvchi o`quvchiga bunday ta'sir ko`rsatishni o`quvchini haroratlaydi. «Sen yaxshi javob berding. Sendan buni kutmagan edim» yoki o`quvchi qilgan xato ustidan kulib, qaerda xato qilganini aytmaydi.

2. Demokratik uslubda rahbar sinfning fikriga suyanan holda ish olib boradi. Biror-bir narsani o`quvchilar bilan birgalikda hal qilishga intiladi, ularning har birini fikri bilishga harakat qiladi, hammani faoliyatga aktiv yondashishga undaydi. Bunday ta'sir o`qituvchining asosiy ta'sir etish formasi iltimos qilish, maslahat berish va axborot berishdan iboratdir.

3. Liberal uslubda o`qituvchi kollektiv hayotiga aralashmaslikka harakat qiladi, o`quvchilar savollariga qiziqishlariga yuzaki qaraydi. Munosabatning quyidagi uslublari ham mavjud:

Do`stlik asosida mavjud bo`lgan munosabat

Masofani saqlovchi munosabat

Nafarat uyg`otuvchi munosabat

Yuzaki bo`lgan munosabat

1. Do`stlik asosida mavjud bo`lgan munosabatda o`qituvchi bolalarga va ishga nisbatan qat'iy ijobiy munosabatda bo`lishi, tashkilot faoliyatiga tegishli bo`lgan muammolarni birgalikda hal qilishga intiladi. Ish yaxshi yurishi uchun o`quvchilar va o`qituvchining tashvishi bir xil, maqsadlari ham bir xil yo`nalishda bo`lishi kerak.

2. Bunda o`quvchi va o`qituvchining munosabati chegaralangan bo`ladi.
Masalan: «Men bilgan narsani siz bilmaysiz», «Men gapimga kiringlar-men sizdan katta sizlardan ko`proq tajribaga egaman».
- Pedagogning bunday avtoritar uslubda ish olib borishi, o`quvchi va o`qituvchi o`rtasida bo`lgan munosabatning muvaffaqiyatsizligiga olib keladi.
3. Qo`rqituv munosabatmasofa saqlovchi munosabatning haddan tashqari shakli hisoblanadi. Bu uslubda o`quvchilarga nisbatan salbiy munosabat va faoliyat tashkil qilishda yuqoridan qarash mujassamlashadi.
- Shu qo`rqituv munosabati, «Yaxshilab eshitinglar yoki doskaga chiqarib 2 qo`yib qo`yaman», «Sizlar hali mendan ko`rasizlar»
4. Bu bzaki usulda pedagog bolalarni juda ham erkin qo`yib yuboradi. Natijada bu usulda bolalar yolg`on gapirib o`zlariga hammani e`tiborini qaratmoqchi bo`lishadi. Bu usulning kelib chiqishi, bundan maqsad tezroq hamma bilan muloqotga kirish, hammaga yoqishdan iboratdir. Lekin boshqa tomondan qaraganda, kasbiy faoliyatning turlari yo`q.
- Munosabat uslubining 2 turi bor: monologik va dialogik
- Dialogik munosabat tarbiyaning asosi hisoblanadi.
- Monolik munosabat esa yoki o`qituvchi va o`quvchi tomonidan ijro etiladi.
- Pedagogning bolalarga bo`lgan ijobiy munosabati va pedagog o`rtasida hamkorlikdagi bo`lgan ijodiy faoliyatini rivojlantiradi va ular o`rtasidagi munosabat demokratik tusda bo`lishiga yordam beradi.
- Pedagogik qobiliyatni aniqlash testi
- O`qituvchining pedagogik qobiliyati asosini pedagogik-psixologik holatlar tashkil etib, unda o`qituvchining o`z kasbiy mahoratini ko`rsata olishi asosiy rol o`ynaydi.
- Biz mashg`ulotlarda psixologik-tinglovchilar bilan ayrim pedagogik-psixologik vaziyatlardan chiqa olish orqali pedagogning qobiliyatini aniqlash testlari bilan ishlamoqdamiz. Bu testlar nafaqat kurs tinglovchilariga mo`ljallangan, balki undan foydalangan holda har bir pedagog o`zining pedagogik qobiliyatini aniqlashi mumkin.

7- mavzu: Pedagogik nazokat va pedagogik odob-ahloq

Reja:

O`qituvchi odobi

O`qituvchi odobining maqsadi

O`qituvchi odobining o`ziga xos qonuniyatlari

Tayanch tushunchalar: Pedagogik etika, ob'ektiv qonuniyatlari, pedagogika, psixologik mafkura.

O`qituvchi odobiga ta'rif berganda mantiqiy tafakkur qonuniyatlarini buzib, xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun o`qituvchi odobi kasb axloqining bir turi, ko'rinishi (yo`nalishi)dir, deb ta'riflash va bu ta'rifda o`qituvchi odobini tavsiflaydigan muhim, asosiy belgilarni ko'rsatish zarur. O`qituvchi odobining muhim, asosiy belgilari qatoriga quyidagilar kiradi: umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, tamoyillari, tushunchalari, mezonlari, talablariga amal qilish; pedagogik jarayon va pedagogik faoliyatning o`zigagina xos bo'lgan xususiyatlarga binoan ularni oydinlashtirish, aniqlashtirish, umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari muallimning o`quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, maktab rahbarlari bilan muomalasida, munosabatlarida, shuningdek, o`quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda, pedagogik mehnatning samaradorligida namoyon bo'lishi kabilar.

Demak, o`qituvchi odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta'lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, muallimning o`quvchilar, o'z kasbdoshlari, ota-onalar, maktab rahbarlari bilan muomala-munosabatlarida ifodalanadigan professional axloqiy xususiyatdir.

O`qituvchi odobi (pedagogik etika) fani esa kasb axloqining yo`nalishlaridan biri bo'lib, umuminsoniy va milliy axloq qonuniyatlarining ta'lim-tarbiya jarayonida qanday namoyon bo'lishini o`rganadi.

O`qituvchi odobining maqsadi bo`lajak pedagoglarni kasb axloqiga doir bilimlar bilan qurollantirish, pedagogik mahorat, axloqiy ko`nikma va malakalarni egallab olish, amaliy faoliyatda o`qituvchining obro`yini oshirishga ko`maklashishdan iborat.

O`qituvchi odobi predmetining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
bo`lajak o`qituvlarga umuminsoniy va milliy axloqqa, kasb axloqiga, o`qituvchi odobiga doir bilim, malaka va ko`nikmalar berish;
ta'lim-tarbiya jarayonida muallim bilan o`quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, maktab rahbarlari o`rtasidagi muomala, munosabatlarni boshqarib, yo`naltirib, tartibga solib, nazorat qilib borish;
pedagogik jarayon qatnashchilari orasidagi muomala, axloqiy me'yorlarni belgilash, ularga amal qilish zarurligini bo`lajak pedagoglar ongiga singdirish;
o`quvchilar va bo`lajak o`qituvchilarga o`z-o`zini axloqiy tarbiyalash yo`llarini o`rgatish;

bo`lajak o`qituvchilarning ma'naviy-axloqiy saviyasi, pedagogik axloqiy madaniyatini oshirish.

O`qituvchi odobining mazmuni, shakllari, xarakterli xususiyatlarini aniqlashda axloq nazariyalari to`g`risidagi ilmiy ta'limotlar va axloq qonuniyatlariga asoslaniladi. Jamiyat a'zolari amal qiladigan, ijtimoiy taraqqiyotga yo`naltirilgan va xizmat qiladigan axloqiy talablar, normalar o`qituvchi odobi, uchun ham xarakterlidir. O`qituvchi odobining mazmuni, shakl va usullari xalqimizning tarixiy an'analari, urf-odatlar, fan, madaniyat, ma'naviyat yuoyuidagi ko`p asrlik tajribasi asosida davlatimiz istiqbolini ko`zlab tashkil etiladi.

Barcha ijtimoiy hodisalar singari o`qituvchi axloqining shakllanishi jarayoni ham ma'lum ob'ektiv qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

O`qituvchi odobi (axloqi) ning umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:
o`qituvchi odobining xarakteri ijtmioiy taraqqiyotning har bir bosqichida shu jamiyatda mavjud bo`lgan ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan belgilanishi va davlat xujjatlarida ijtimoiy buyurtma sifatida ifodalanishi;
o`qituvchi odobining maqsadi, mazmuni va usullarining birligi;

yaxlit pedagogik jarayonida xaloqiy ma'rifat, axloqiy tarbiya va o`qituvchi
odobining birligi;

O`qituvchi odobining xususiy (o`ziga xos) qonuniyatlari:

o`qituvchilik kasbini va bolalarni sevish;

o`qituvchi o`zi dars beradigan fanni, uni o`qitish nazariyasi va metodikasini,
pedagogik, psixologiya va mafkuraga doir chuqur bilimga, yuksak ma'naviy
madaniyatga ega bo`lishi;

o`qituvchi shaxsining axloqiy pokligi;

jamiyat oldidagi burchni, pedagogiklik mas'uliyatini yuksak darajada anglash,
axloqiy e'tiqodli bo`lish;

o`zi bajarayotgan ishning haqligiga va o`z kuchiga, o`quvchilarining har biri
ulg`ayib jamiyat uchun foydali, yaxshi odam bo`lib etishishiga ishonch;

pedagogik takt, muomala odobi qoidalariga amal qilish;

o`qituvchining yaxshilik qilish istagi, xushmuomalaligi va amaliy ishlarining,
ya'ni so`zi bilan ishining birligi;

hamma o`quvchilarga nisbatan xolis niyatli, ob'ektiv, talabchan, adolatli
bo`lish;

pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri bilan pedagogik ijodkorlikning
uyg`unligi.

O`qituvchi odobining manbalariga quyidagilar kiradi:

-O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va
Ta'lim to`g`risidagi Qonuni (1997), Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining
direktiv hujjatlari, Respublika Prezidentining asarlari, ma'ruzalari, nutqlari;
umuminsoniy va milliy axloqqa, kasb odobiga doir ilmiy asarlar;

Qurg`oni Karim, Hadimi Sharif;

O`rta Osiyoda yashab ijod etgan donishmandlarning madaniy-ma'rifiy,
paedagogik merosi;

Milliy-axloqiy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar;

O`zbek xalq pedagogikasi asarlari, odobnomaplar va ularga doir ilmiy-
pedagogik tadqiqotlar;

Axloqiy tarbiyaga doir, o`qituvchi odobiga doir ta'limotlar;
Maktablarda odobnoma, adabiyot va boshqa fanlarni o`qitish tajribasi,
pedagogik amaliyotga doir materiallar;
Ta'lim-tarbiya jarayonini, pedagogik faoliyatni aks ettirgan badiiy asarlar va
boshqalar.

8-mavzu: Pedagogik texnika haqida tushuncha. pedagogik texnikani
shakllantirish usullari

Reja:

Pedagogik texnika tushunchasi va uning tuzilishi

Verval va noverval kommunikatsiya

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari

A) O`qituvchining odob-axloqiy ko`nikmalari

B) Shaxs va jamoada ta'sir ko`rsata bilish texnikasi

Tayanch tushunchalar: Pedagogik texnika, nutq malakalar, mimika,
pantomimika, o`z hissiy holatni boshqarishi, nutq haqida tushuncha, nutq va
inson kamoloti, nutqni mashq qildirish;

Pedagogik texnika tushunchasi va uning tuzilishi.

Ustoz-pedagoglar erishgan muvaffaqiyatlarning sirini bilishga harakat
qilar ekanmiz, biz ularning pedagogik ta'sir usullaridan ustalik bilan
foydalangan holda turli-tuman amaliy ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni ustalik bilan
hal etishlariga guvoh bo`lamiz. Bunda muhim rol ni maxsus ko`nikmalar
egallaydi: o`quvchilarni ijtimoiy foydali o`quv faoliyatiga safarbar ega
bilish, muommo qo`ya bilish, jamoa va alohida shaxs bilan til topish, kuzata
bilish, o`z kechinmalarni boshqacha bilish: ovoz, nutq, mimika, harakatlarini
erkin boshqara bilish va h.

Pedagogik texnika-o`qituvchi faoliyatining botiniy mazmunini hamda
zohiriy ifodasining garmonik birligidan iboratdir. Pedagog mahoratining

ma'naviy madaniyati hamda pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan
zohiriy ifodasi sintezidan iboratdir. (N.N. Tarasovich).

Shunday qilib texnika-usullar majmuasidir. Uning vositalari esa-nutq va
muloqot vositalaridir. «Pedagogik texnika» tushunchasi o'z ichiga 2 guruh
tarkibiy elementlarni qamrab oladi:

1. O'qituvchining odob-axloqiy ko'nikmalari bilan bog'liq bo'lgan elementlar:
o'z jismini (mimika, pantominika) boshqara bilish; his-tuyg'u, hayajon, ta'bini
boshqara bilish (ortiqcha ruhiy zo'riqlashlardan osonlik bilan xolos bo'la olish,
ijobiy muhiti to'g'richa bilish); diqqat qila bilish, kuzatuvchanlik, tasavvurning
kengligi; nutq texnikasi (nafas, ovozni boshqarish, diktsia, nutq tezligi (tempi)).
2. Shaxs va jamoada ta'sir ko'rsata bilish texnikasi ta'lim-tarbiyaning texnologik
tomoni bilan bog'liq bo'lib, bularda: didaktik, tashkiliy, ijodiylik, muomala
ko'nikmalari; talab qila qilish, pedagogik muloqotni boshqara bilish,
jamoatchilik ijodiy faoliyatini tashkil eta bilish va boshqalar kiradi.

Quyida biz pedagogik texnikaning, pedagogning odob-axloqi bilan
bog'liq bo'lgan jihatlarini qarab chiqamiz.

Pedagogik maqsadga qaratilganlik va pedagogning tashqi qiyofasi

Tarbiyachining tashqi qiyofasi estetik jihatdan ko'rimli bo'lishi lozim.

O'qituvchi juda ham bashang va juda ham pala-partish kiyinmasligi lozim.

Uning tashqi qiyofasi kiyim-kechaklari tarbiyachi shaxsini shakllantirish
vazifasini hal etishga bo'ysindirilgan bo'lishi lozim. Zamonaviy kiyinish
normalaridan keyinda qolmagan holda u o'rtacha me'yor amal qilgani tuzuk.
Tarbiyachining estetik did bilan kiyinishi, uning o'zini erkin tuta bilishi, nutqi,
mimik va pantomimik harakatlariga mos bo'lishi lozim. Chunki uning har bir
harakat: auditoriyaga qay tahdidda kirishi, stulda qanday o'tirishi, yurish, turishi
tarbiyalanuvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. U o'zini xotirjam, jiddiy, o'rni
kelganda esa bolalarning yoshiga mos ravishda xushchaqchaq tuta bilsa,
tarbiyalanuvchilarga ta'sir talab darajasida bo'ladi.

Emotsional holatni boshqarish

Boshlovchi pedagog birinchi marta o`zini juda ishonchsiz sezadi. O`ziga qarab turgan ko`zlarning tazyiqi natijasida uni titroq bosadi, nutqi uzuq-yuluq, pala-partish, o`zini yuqotib qo`yadi. (chunki u o`z ustidan kulishlaridan qo`rqadi) bularning barchasini o`qituvchidan bo`lajak mashg`ulot oldidan o`zini ruhiy fiziologik jihatdan tayyorlashni, muloqot paytida o`z emotsional holatni boshqara bilishni talab etadi.

O`z-o`zini boshqarish qobiliyatini aniqlash uchun B. M. Chyorniy tuzga testdan foydalanish mumkin:

«Ha yoki yo`q»so`zlari bilan hissiyot-holatingizga tegishli bo`lgan savollarga javob bering.

Har doim xotirjam, toqatlimisiz?

Sizning ta'bingiz har doim tuzukmi?

Auditoriyada mashg`ulot o`tayotganda, unga diqqat va sarajomlik sizni tark etmaydimi?

Siz o`z his-hayajoningizni boshqara olasizmi?

Siz o`z o`rtoqlaringiz va yaqinlaringizga nisbatan diqqatli e'tiborli va mehribonmisiz?

Siz o`rganish kerak bo`lgan materialni engil o`zlashtira olasizmi?

Sizda o`zingiz xalos bo`lishni istagan salbiy odatlar yo`qmi?

Siz qaysidir vaziyatda o`zimni noto`g`ri xulqim deb afsuslanasizmi?

«Ha va yo`q» javoblarini hisoblab, xulosa chiqarish mumkin. Agar barcha javoblar ijobiy bo`lsa, vazminlik, o`z-o`zini boshqara bilish, yoki o`ziga ortiqcha baho berishi ko`rsatadi. Agar barcha javoblar yoki ularning ayrimlariga salbiy javobga to`g`ri kelsa, bu kishining notinchligi, o`ziga ishonchsizligi, o`ziga tanqidiy qarashidan dalolat beradi. Aralash javoblar («Ha» ham «yo`q») o`z nuqsonlarini ko`ra bilishi ko`rsatadi. Bu esa o`z-o`zini tarbiyalash tomon birinchi qadamdir.

O`z-o`zini boshqarish usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

-Yaxshilik, mehribonlik va optimizmni tarbiyalash

-O`z xulq atvorini nazorat qilish (mushak qo`riqishi, harakat tezligi, nutq, nafas olish);

-Faoliyatda dam olish (mehnat, musiqa, kitobxonlik, yumor, imitatsion o`yinlar)

Navbatdagi usullari organizmning faoliyatini nazorat qilishga asoslanadi.

Xususiy qayg`urishlar chuqurligini o`zgartirish mumkin. Buning uchun tashqi ta`sir zarur bo`ladi. Bunga nazoratni nimaga qaratish lozim? Albatta mimika, suyak mushkullari, nutq tezligi, nafas olishni mo`tdillashtirish lozim bo`ladi.

Jismoniy va ruhiy jihatdan organizmni bo`shashtirish uchun autogen mashqlar (psixik o`z-o`zini boshqarish) o`ziga xos psixofizik gimnastik mashqlar bo`lajak o`qituvchi uchun nafas olish va nutq ohangini tarbiyalashda xizmat qiluvchi mashqlar qatoridan joy olmog`i lozim. Psixik o`z-o`zini boshqarish o`z tarkibiga (Bo`shashuv holati) va kasbiy zarur bo`lgan sifatlarni egallash uchun o`z-o`zini ishontirish formulalaridan foydalanishni qamrab oladi. Buning uchun chordona qurgan holda maxsus formulalar yordamida og`irlik va issiqlik sezgisini organizm a'zolari-qo`l-oyoqda hosil qilish, muskullarni bo`shashtirish, tinchlanishini mashq qilish mumkin. Shundan so`ng quyidagi formula asosida quyidagilarni ovoz chiqarib aytib o`z-o`zini u yoki bu faoliyatda safarbar etish mumkin.

«Men xotirjam. Darsimni yaxshi o`tayapman. Talabalar yaxshi tinglashayapti. O`zimni erkin his etayapman. Men darsga yaxshi tayyorlanganman. Dars qiziqarli. Talabalarning barchasini bilaman va ko`rayapman. Men darsni yaxshi o`taman. Mening darsimga talabalar qiziqishadi. Men o`zimga ishonaman, kuchliman. Men o`zimni yaxshi tuta olaman. Ruhiyatim yaxshi. O`qitish qanday yaxshi. Talabalar meni hurmat qilishadi, tinglashadi va mening talablarimni ijro etishadi. O`qituvchilik kasbi menga yoqadi. Men-o`qituvchiman!».

Biroq pedagogik faoliyatning boshida ro`y beradigan qiyinchiliklarni engib o`tish uchun katta bardosh, iroda, sabr-toqat talab etilishini yoddan chiqarmaslik lozim.

Pantomimika.

Gavda, qo'l va oyoqning harakatiga-pantomimika deyiladi.

Pantomimikadan mohir pedagoglar o'z fikrlarining asosiy o'rinin ta'kidlash, obraz yaratish maqsadida foydalanadilar. O'qituvchi dars paytida o'quvchilar oldida to'g'ri turish malakasini egallashi kerak (oyoqlar oralig'i 12-15 sm, bir oyoq biroz oldinga tashlangan holda. Uning barcha harakatlari nazokatli, oddiy va tarbiyaligi bilan ajratib turishi lozim. Gavdani tutish estetikasi salbiy odatlardan xoli bo'lishi talab etadi; orqa-oldga tomon chayqalashi, bir oyoqdan ikkinchisiga og'irlikni tashlash, stul suyanchig'ini tutish, qo'lda darsda aloqasiz buyumlarni aylantirish, bosh qashish, burun qoqish, quloq kavlash va h.k.

Uning imo-ishoralari aniq tushunarli, ma'noli bo'lmog'i lozim. Imo-ishoralar tasviriy va psixologik turlarga bo'linadi. Tasviriy ishoralar fikr yonalishni tasavvur etish, chizib berish uchun xizmat qiladi. Eng muhimi psixologik testlar bo'lib, ular his-hayajon, tuyg'ularni ifodalashga xizmat qiladi.

Masalan, o'qituvchi to'g'ri javobdan mamnunligini boshini 3 marta ohista pastga etish orqali, javobdan qoniqmaganligini esa boshini ikki tomonga «sarak-sarak» qilib chayqash orqali ifodalashi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ishoralar aytilmoqchi bo'lgan fikr to'g'risida oldindan ogoh etish uchun ishlatiladi, aytilgan fikrdan keyin ularni qo'llashning foydasi yo'q. O'quvchilarga aytiladigan fikr ta'sirini oshirish uchun oldinga qarab yurish, ularga dam berish uchun esa orqaga qaytish lozim.

Mimika

O'z fikri, hissiyoti, ruhiy holatini ifodalash san'ati mimika deyiladi ba'zan o'qituvchi yuz ifodasi u aytmoqchi bo'lgan so'zdan ham ko'ra kuchli ta'sirga

ega. Imo-ishora va mimika axborotning emotsion ta'sir kuchini oshirib yaxshi qabul qilishga sabab bo'ladi.

O'quvchilar o'qituvchining fikrini uning yuz ifodasidanoq qilib oladilar. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z kechinmalarini yashira olish ham lozim. Yuz harakatlari faqatgina o'quv tarbiya maqsadida qo'llanishi lozim.

Yuz ifodasi butun qifoya kabi o'zga ishonch, xayrhohlik, hukuk, norozilik, xursandlik, faxrlanish, loqaydlik, qiziquvchanlik, xafalik kabilarni ifodalay olishi lozim. Insonning barcha hissiyotlari uning tabassumida mujassamlashgan bo'ladi, u kishining ma'naviy sog'lomligi va axloqiy qudratini o'zida ifodalaydi. Mimikani ifodalovchi-qosh va ko'zdir. Qoshning yuqoriga ko'tarilishi hayratlanishni, chimirilishi- diqqatni to'plashni, qimirlatmasdan turish-xotirjamlikni, loqaydlikni, tez harakatga kelishini-tang holini ifodalaydi.

Ko'z kishining eng ta'sirchan organidir. O'qituvchi o'z yuz tuzilishining imkoniyatlarini yaxshilab o'rganib chiqishi lozim. U har bir xodisaga nisbatan o'z ko'z qarashlari bilan o'zining ijobiy, salbiy, betaraf munosabatini ifodalay bilishi lozim. Uning ko'zi «olmakesak» termasligi, yoki «baliq ko'z» bo'lmasligi lozim. Mana masalan, quvonchli holatni ifodalovchi belgilar: tabassum, ko'z yashnaydi, haddan tashqari imo-ishoralar, so'zamonlik, boshqalarga yordam berish istagi ko'zga tashlanadi.

Qo'rquv belgilari: ko'zlar katta-katta ochilgan, gavda chalpaygan, qoshlar biroz ko'tarilgan, ovoz titraydi, harakatlar shiddatli, gavda titraydi.

O'qituvchining nazari o'quvchilarda bo'lishi lozim. Ular orasidagi ko'z aloqasi mashg'ulotlar davomida mustahkamlanib borishi kerak. Biroq shuni ham unutmaslik lozimki, katta ig'in, mitinglarda, so'zda chiqqanda bunday aloqadan voz kechish lozim.

O'qituvchi nutqi- pedagogik mahorat ko'zgusi sifatida

Olimlarning hisoblashlariga ko`ra o`quv uchun ajratilgan vaqtning taxminan 1/4-1/2 qismi o`quvchilarning o`qituvchi nutqini eshitishlari va tushunishlari uchun sarflanadi. Demak, o`quv materialining o`quvchilari tomonidan puxta o`zlashtirilishi o`qituvchi nutqining kamoloti va yaqinligiga bog`liq ekan.

Haqiqat ham A. Navoiy ta'kidlaganidek «So`z insonning daraja va kamoli, ilm va fazlni ulug`lab ko`rsatadurgon tarozisidir. Aql sohiblar kishilarning fikr-va niyatini, ilm va quvvatini qadr va qimmatini so`zlagan bilur». Ayniqsa, o`quvchilar o`qituvchi talaffuzi, nutq texnikasiga katta e'tibor beradilar. Duduq, kirishi, tovushga taqlid kabi so`zlarning masalan «aytaylik», «xo`sh», «anaqa», «o`tga-bo`tk», «demak» kabi so`zlarning o`rinsiz ravishda ko`p takrorlanishi o`quvchilarning ensasini qotiradi. Bunday hol faqat o`rta maktab o`qituvchilari va o`quvchilari orasidagina emas, balki oliy o`quv yurti professor-o`qituvchilari orasida ham uchrashuv achinarli holdir.

A D A B I Y o T L A R

I.A. Karimov Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori T.

«Sharq» 1997 yil

O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risidagi» qonuni-T. O`zbekiston
1997 yil

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. «Sharq» 1997 yil

Abu Nosir Farobiy Fozil odamlar shahri T.A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi
nashriyoti 1993 y

Ajdodlar o`giti. Hikmatlar, hikoyatlar, tasillar. T. Cho`lpon.1991 yil

Azarov Yu.I. Bolalarni sevish san'ati. T. «O`qituvchi» 1992 yil

Abu Ali Ibn Sino Ziynat T. «Sharq» nashriyoti 1992

- B. Axmedov, A. Aminov Amir Temur o'g'itlari. T. «Navro'z» 1992 yil
- Boltajon Sodiqov «Pedagogik mahorat va psixologiyasi» 1996 yil
- Kaykovus U «Qobusnoma» T. «O'qituvchi» 1992 yil
- Muomala trentingi T. O'z MU 1994 yil
- Muhammad Payg'ambar qissasi Hadislar T. «Kamalak» 1991 yil
- Muhiddinov A.G. O'quv jaranida nutq faoliyati. T. O'qituvchi 1995 yil
- Alisher Navoiy Mahbub ul-qulub asarlari 15-tom T. 1996 yil
- Rajabov S. Mutaxassislikka kirish T. «O'qituvchi» 1991 yil
- Rajabov M. Pedagogika fanining allomalari T. «O'qituvchi» 1991 yil
- Rasmiy va norasmiy uchrashuvchilar odobnomasi T. «Adolat» 1992 yil
- Rahimov S, To'raqulov E. Abu Rayhon Ruhig't va ta'lim-tarbiya to'g'risida T. 1992 yil
- Rashidov A. Milliy an'analar tarbiya manbai Xalq ta'limi jurnali 1-son 1992 yil
- Saidnazarov F, Saidnazarov I, Tarbiya, odob, va oqibat T. «O'zbekiston»
- Tarbiyaviy ish metodikasi L. I. Ruvinskiy tahrir ostida T. «O'zbekiston» 1991 yil
- To'xliiev B. Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asari T. «Yulduzcha» 1991 yil
- Faxr-ul Banot Sig'battulog qizi Oila saboqlari T «Yozuvchi» 1992 yil
- Fralov F. Yosh direktor maktabi T. «O'qituvchi» 1991
- N. Eshonqulov Hikmatnoma. T. Cho'lpon 1992 yil
- Shomahsumov, Shorahmedov Sh. Hikmatnoma T. 1990 y
- M. Zaxirina, S.X. Temurova, V.G. Sharova O'qituvchilik ixtisosiga kirish kursiga metodik ko'rsatmalar. T. 1990 yil
- Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari T. «O'qituvchi» 1993 yil
- E.G'oziev «Muloqot psixologiyasi» Toshkent 1990 yil

